

SMART TURIZM - RAQAMLI TEXNOLOGIYA SIFATIDA

Ahadov Diyorbek Mustaqim o'g'li

Buxoro Davlat Texnika Universiteti,

Iqtisodiyot (sohalar va tarmoqlar boyicha) yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro shahrida raqamli texnologiyalar asosida zamonaviy turizm xizmatlarini joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikka erishish masalasi yoritilgan. Tadqiqot davomida smart turizm tizimi haqida nazariy ma'lumotlar tahlil qilindi, mavjud muammolar ochib berildi va ularni yechish uchun innovatsion yondashuvlar taklif qilindi. Raqamli xizmatlar orqali sayyohlar sonini ko'paytirish, ularning xarajatlari orqali hududiy iqtisodiy faollikni oshirish mumkinligi asoslab berilgan. Maqola yakunida loyiha iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatuvchi mexanizmlari bilan izohlangan.

Kalit so'zlar: smart turizm, raqamli xizmatlar, iqtisodiy samaradorlik, AR texnologiyalar, turizm infratuzilmasi, investitsiya

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha sohalariga chuqur kirib kelmoqda. Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino aytganidek: "Ilm hamisha amaliyot bilan birlashgandagina jamiyatga foyda keltiradi."

Ayniqsa, turizm sohasida "smart" texnologiyalar sayyohlik xizmatlarini tubdan o'zgartirishga xizmat qilmoqda. Ammo Buxoro kabi tarixiy shaharlarda bu imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayapti. Ushbu maqola aynan ana shu kamchilikni bartaraf etish, ya'ni raqamli texnologiyalar orqali turizmni rivojlantirish va hududiy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini ochib beradi.

Turizm sohasining zamonaviy rivojlanish bosqichida raqamli texnologiyalarning o'rni tobora kuchayib bormoqda. Bugungi sayyoh qulay, tezkor, xavfsiz va interaktiv xizmatlarni izlaydi. Ayniqsa, tarixiy va madaniy boyliklarga ega Buxoro shahrida mavjud salohiyatni to'liq iqtisodiy resursga aylantirish uchun an'anaviy xizmat ko'rsatish uslublaridan zamonaviy raqamli yechimlarga o'tish zarurati yaqqol sezilmoqda.

Amaldagi turistik xizmatlar tizimi — gid yetishmovchiligi, xorijiy tillarda ma'lumotlarning cheklanganligi, to'lov tizimlarining moslashuvchan emasligi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa sayyohlarning tajribasiga salbiy ta'sir ko'rsatib, iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, Buxoroda hali to'liq joriy qilinmagan, ammo turizm sohasini rivojlantirish orqali iqtisodiy o'sishga xizmat qiluvchi raqamli yechimlar asosidagi loyihalarni ishlab chiqish dolzarb sanaladi. Ushbu maqolada Buxoro shahrida qo'llash mumkin bo'lgan va iqtisodiy jihatdan samarali bo'lgan innovatsion loyiha g'oyasi tahlil qilinadi hamda ahamiyati yoritiladi:

1. "Smart Turizm" mobil ilovasi – raqamli boshqaruv va xizmatlar markazi

Hozirgi kunda Buxoroga tashrif buyurayotgan xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun eng katta muammolardan biri — xizmatlarning tarqoq, chalkash va bir-biriga bog'lanmagan holatda bo'lishidir. Mehmonxona bron qilish alohida sayt orqali, gid topish boshqa, ob-havo yoki yo'nalish haqida esa umuman boshqa manbadan ma'lumot olinadi. Bu esa sayyohlar uchun vaqt va qulaylik jihatidan katta noqulaylik tug'diradi. Ayni shu muammo "raqamli ekotizim"ning yo'qligidan dalolat beradi.

Taklif etilayotgan "Smart Turizm" mobil ilovasi aynan shu muammoni hal etishga xizmat qiladi. Ilova orqali sayyoh barcha kerakli xizmatlardan bir joyda foydalanishi mumkin:

- Tarixiy obidalar haqida audio/video gidlar;
- Onlayn xarita va yo'l ko'rsatkichlar;
- Gidlar ro'yxati va ularni real vaqt rejimida band qilish;
- Restoran, mehmonxona va transport xizmatlarini bron qilish;
- To'lovlar, chipta xarid qilish, aksiya va chegirmalardan xabardor bo'lish;
- SOS tugmasi orqali favqulodda vaziyatda tez yordam chaqirish va h.zo

Ilova til jihatidan ham foydalanuvchilar ehtiyojini qamrab oladi: o'zbek, ingliz, rus va boshqa xalqaro tillarda ishlaydi.

Umuman olganda, "Smart Turizm" ilovasi — bu Buxoroda raqamli turizm infratuzilmasining markaziga aylanishi mumkin bo'lgan, iqtisodiy va madaniy jihatdan muhim loyihadir.

2. "QR-kodli gid tizimi" – sun'iy yo'lboshchi orqali madaniy boyliklarni interaktiv tushuntirish

Buxoro tarixiy obidalarga nihoyatda boy shahar bo'lishiga qaramay, bu obyektlar haqida mukammal va tushunarli ma'lumot olish hozircha faqat gidlar orqali yoki toliq bo'lmagan yozuvlar bilan cheklangan. Ayniqsa xorijiy sayyohlar uchun bu jiddiy muammoga aylangan: ayrim obidalar haqida noto'g'ri yoki yetarli bo'lmagan ma'lumotlar sayyohda salbiy taassurot qoldiradi.

Taklif etilayotgan QR-kodli gid tizimi bu muammoning soddalashtirilgan va arzon raqamli yechimidir. Har bir tarixiy obida, madaniy obyekt va sayyohlar tashrif buyuradigan nuqtalarga QR-kodlar o'rnatiladi. Ushbu kodni smartfon orqali skanerlash orqali sayyoh quyidagilarga ega bo'ladi:

- Obida tarixi, arxitektura uslubi, davri haqida video yoki audio shakldagi ma'lumot;
- 3D animatsiya yoki virtual tiklanish ko'rinishi;
- O'z tilida (ingliz, o'zbek, rus va boshqalar) tushuntirishlar;
- Qiziqarli faktlar va interaktiv testlar (turistlar ishtirokini oshirish uchun).

3. "Virtual turizm platformasi" – raqamli Buxoroga global ochilish eshigi

Bugungi raqamli davrda turizm faqat real tashrif bilan cheklanib qolmayapti. Dunyodagi ko'plab yirik shaharlar va muzeylar sayyohlar uchun virtual sayohat imkoniyatlarini yaratgan: odam uyida o'tirgan holda, telefon yoki kompyuter orqali diqqatga sazovor joylarni ko'rishi, tarixini o'rganishi va hattoki onlayn tarzda suvenir xarid qilishi mumkin. Afsuski, Buxoro hali bu yo'nalishda raqobatbardosh emas.

Shu sababli, taklif etilayotgan "Virtual turizm platformasi" Buxoroni global miqyosda raqamli xaritada kiritish imkonini beradi. Platforma orqali foydalanuvchilar quyidagi imkoniyatlarga ega bo'ladi:

- 360° virtual tur – Kalon minorasi, Ark, Labi hovuz, Ismoil Somoniy maqbarasi va boshqa joylarda onlayn yurish;
- Har bir obida haqida audio/video tushuntirish;
- Interaktiv xaritalar, tarixiy davrlarga oid rekonstruksiya modellar;
- Sayohat davomida mahalliy hunarmandlar mahsulotlari, suvenirlar, kitoblar va xizmatlarni onlayn xarid qilish;
- Mahalliy bizneslar uchun raqamli reklama platformasi (restoranlar, mehmonxonalar, tovarlar va boshqalar).

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Buxoro shahri turizm salohiyatini oshirishda faqat tarixiy merosga emas, balki raqamli innovatsiyalarga ham tayanuvchi yondashuvlarga ehtiyoj sezmoqda. Taklif etilgan loyihalar – "Smart Buxoro" mobil ilovasi, QR-kodli gid tizimi, virtual turizm platformasi va shahar turizmini zamonaviylashtirish, xorijiy va mahalliy sayyohlar uchun qulayliklar yaratish, hamda iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Bu raqamli yechimlar orqali Buxoro nafaqat tarixiy yodgorliklar shahriga, balki zamonaviy texnologiyalar orqali aqlli turizm markaziga aylanishi mumkin. Eng muhimi, bu loyihalar juda kam sarmoya bilan boshlanishi, ammo uzoq muddatda yuqori daromad va brend qiymatini oshirish imkoniyatini beradi. Shuningdek, ushbu g'oyalar turizmga yangi ish o'rinlari yaratishga, yoshlar uchun innovatsion faoliyat yo'nalishlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

Demak, Buxoroni kelajakda barqaror turizm shahri sifatida ko'rish uchun hozirdan boshlab raqamli islohotlarni bosqichma-bosqich hayotga tatbiq etish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Qodirov S., To'xtaboyev M. O'zbekistonda turizm industriyasi rivoji. – Samarqand: "Ilm ziyo", 2021.
2. Abdullayev D., Raximov S. Raqamli iqtisodiyot va turizm sohasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2022.
3. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi rasmiy sayti – www.uzbektourism.uz (<http://www.uzbektourism.uz/>)
4. "Smart tourism" bo'yicha xalqaro tahliliy maqola – UNWTO: Smart Destinations Report, 2021.
5. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi sayti
6. www.wttc.org – World Travel and Tourism Council (Jahon sayohat va turizm kengashi) hisobotlari